



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

---

**АГПИ**  
**Научный вестник**



ANDIJON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

## ADPI Ilmiy xabarnomasi

**№ 2 2026** **aprel**

**Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2181-4309**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-  
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy  
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga  
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik  
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida  
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida  
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

**Murojaat uchun:**

**Telegram:** ADPIilmiyxabarnoma\_bot

**Electron manzil:** [eduservis@gmail.com](mailto:eduservis@gmail.com)

**2/2**

**BOSH MUHARRIR:**

**B.M. Rasulov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul muharrir:**

**B.A. Sirojiddinov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**TAHRIR KENGASHI**

**S.Z. Zaynobiddinov**- O'zRFA akademigi

**I.R. Asqarov**- kimyo fanlari doktori, professor

**Sh.X. Yo'lchiyev**- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

**A.E. Zaynobiddinov**- biologiya fanlari doktori, professor

**B.X. Amanov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.A. Egamberdiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**M.V. Xalimova**- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.J. Yusupova**- pedagogika fanlari doktori, professor

**Z.E. Azimova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.B. Artiqova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**V.A. Qodirov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**N.J. Abdullayeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.A. Tojiboyeva**- filologiya fanlari doktori, professor

**Sh.A. Xaitov**- tarix fanlari doktori (DSc), professor

**A.G. G'aniyev**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**M.K. Pozilov**- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**T.T. Kaziyeva**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**U.A. Usmanova**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**A.Xakimov**- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**M.T.Parpiyev**- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.A. Zapparov**- texnika fanlari nomzodi, professor

**U.A. Saliyev**- tarix fanlari nomzodi, professor

**M.I. Israil**- filologiya fanlari doktori, professor

**L.A. Muxammadjonova**- falsafa fanlari nomzodi, professor

**Sh.A. Xasanov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**X.T. Komilova**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**M.Sh. Alimova**- siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Q. Ibaybullayev**- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**D.T. Samatov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D'.M. Muxtarov**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.N. Yusupova**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**B.M. Do'monov**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.A. Tajimirzayev**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**K.S. Karimov**- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.A. Yuldashyev**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.J. Abduraxmonova**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.M. Muydinova**- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**J.B. Qoraboyev**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**N.T. Mo'yidinov**- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Sobirova**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.B. Abdullayev**- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**G'.Sh. G'ulomov**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**L.S. Yunusov**- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.S. Yaqubov**- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

**M.I. O'rinboyev**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**U.Sh. Uktamov**- geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**M.G'. Ergasheva**- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

**Muharrirlar:**

**O. Karimov,**

**U. Malikova,**

**B. Mashrabova.**

# MUNDARIJA

## PEDAGOGIKA

<b>Artikova M.B., Turaboyeva M.R.</b> Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida .....	4
<b>Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	9
<b>Hasanov Sh.A.</b> Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida .....	15
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari .....	20
<b>Agzamova N.O.</b> Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri .....	30
<b>Matmusayev T.M.</b> Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi .....	35
<b>Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z.</b> Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi .....	42
<b>Alimov J.A., Shermuhammedov M.</b> Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish .....	47
<b>Axunov U.R.</b> Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash .....	51
<b>Shabdullayeva L.O.</b> Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari .....	55
<b>Karimova M.M.</b> Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni .....	62
<b>Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'.</b> Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	67
<b>Hasanov Sh.A.</b> Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida .....	71
<b>Ismonov X.B., Azimjonova U.Z.</b> Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati .....	78
<b>Maxmudov A.O.</b> Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish .....	84
<b>Abduraxmonova D.Sh.</b> Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari .....	89
<b>Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U.</b> Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari .....	93
<b>Madaminova G.G.</b> Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari .....	100
<b>Mashrabova B.N.</b> Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language .....	106
<b>Nishonov N.A.</b> O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari .....	111
<b>Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L.</b> Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati .....	115
<b>Uraimov S.R., Xakimjonov M.X.</b> Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish .....	120
<b>Yoqubjonov N.G'.</b> Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish .....	126
<b>Jo'rayeva D.I.</b> Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi .....	130

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

<b>Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A.</b> Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar .....	135
<b>Raximova Z.X.</b> Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida .....	142
<b>Uzaqova N.M.</b> Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari .....	149
<b>Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M.</b> Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash .....	153
<b>Mutallibjonov U.I.</b> Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni .....	157

## ANIQ VA TABIIY FANLAR

<b>Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A.</b> Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	162
<b>Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш.</b> Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий .....	169
<b>Umarov A.V.</b> Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari .....	173
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	179
<b>Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х.</b> Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты .....	183
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....	187
<b>Jamoldinova D.A.</b> Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi .....	192
<b>Abfazova K.S.</b> Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi .....	196

UO'K: 821.512.133

## OLIY TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI: YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

*Uzaqova Noilaxon Ma'ribjon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

### **Annotatsiya.**

*Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati, rivojlanish bosqichlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni amalga oshirishda maxsus pedagoglarning o'rni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish masalalari yoritilgan. Jumladan, jamiyatimiz teng huquqli a'zolari hisoblanadigan jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan shaxslarni ta'lim olishini ta'minlash borasida bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta'lim amaliyoti yaxshi natija berayotganini ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib etib kelinmoqda. Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning zaruriyati, bugungi holati, ushbu ta'lim shaklini joriy etishda mavjud muammo va to'siqlar, hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar yoritib berilgan.*

### **Kalit so'zlar:**

*inklyuziv ta'lim, oliy ta'lim, maxsus pedagogika, imkoniyati cheklangan talabalar, integratsiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuv, teng imkoniyatlar, ta'lim sifati, ijtimoiy integratsiya.*

### **Аннотация.**

*В данной статье рассматривается значение и развитие инклюзивного образования в системе высшего образования, анализируются существующие проблемы и пути их решения. Также освещается роль специальных педагогов в реализации инклюзивного обучения и вопросы организации образовательного процесса на основе современных педагогических технологий. В обществе, где все его члены являются равноправными, важно обеспечить получение образования лицами с физическими или умственными нарушениями развития. В средствах массовой информации широко освещается успешный опыт внедрения инклюзивного образования в развитых странах. В статье рассматриваются необходимость развития инклюзивного образования в высших учебных заведениях Узбекистана, текущее состояние этой сферы, существующие проблемы и препятствия при внедрении данной формы обучения, а также даются рекомендации по их устранению.*

### **Ключевые слова:**

*инклюзивное образование, высшее образование, специальная педагогика, студенты с ограниченными возможностями, интеграция, инновационные технологии, равные возможности, качество образования, социальная интеграция.*

### **Abstract.**

*This article examines the importance and development of inclusive education in the higher education system, analyzes existing problems and ways to solve them. The role of special teachers in the implementation of inclusive education and the organization of the educational process based on modern pedagogical technologies are also covered. In a society where all its members are equal, it is important to ensure that persons with physical or mental developmental disabilities receive education. The successful experience of introducing inclusive education in developed countries is widely covered in the media. The article considers the need to develop inclusive education in higher educational institutions of Uzbekistan, the current state of this sphere, existing problems and obstacles in the introduction of this form of education, and also gives recommendations for their elimination.*

### **Keywords:**

*inclusive education, higher education, special pedagogy, students with limited opportunities, integration, innovative technologies, equal opportunities, quality of education, social integration.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda inklyuziv ta'lim tushunchasi markaziy o'rinni egallamoqda. Inklyuziv ta'lim – bu har

bir shaxs, jumladan imkoniyati cheklangan yoshlarning ham ta'lim olish huquqini ta'minlovchi jarayondir. Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish nafaqat ijtimoiy adolatni, balki ta'lim tizimining insonparvarlik tamoyillarini ham mustahkamlaydi. Maxsus pedagogika esa bu jarayonning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi. Inklyuziv ta'limning maqsadi- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim muassasalarida maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularni jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Bugun jamiyatimiz Bugun jamiyatimiz o'z oldiga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu jarayonning barcha bo'g'inlarida ularning to'laqonli ta'lim olish imkoniyatini amalda qo'llash vazifasini qo'ygan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 1031609 nafarni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich aholining taxminan 2,7% ini tashkil etadi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari bir necha muhim qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali belgilangan:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir inson ta'lim olish huquqiga egaligi belgilandan. Ushbu modda barcha fuqarolarga, jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarga ham teng ta'lim olish huquqini kafolatlaydi.

2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ham ta'lim olishda teng huquqlilik belgilab qo'yilgan [1].

3. 2021-yil 15-oktabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunda inklyuziv ta'lim muhitini yaratish, zarur moddiy-texnik va psixologik-pedagogik sharoitlarni ta'minlash haqida aytib o'tilgan [2].

Aytishimiz mumkinki, keying yillarda respublikamizda nogironlar huquqlarini himoya qilish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlari nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat hayotining barcha jabhalariga jalb etishga xizmat qilishi kerak, bu esa yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida muhim ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 20 %ini jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsonlarga ega bo'lgan shaxslar tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ko'rsatkich yildan yilga ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev boshchiligida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyaning maqsadi olit ta'lim sohasida ilg'or xorijiy tajriba asosida raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlashni davom ettirgan holda islohotlarni chuqurlashtirishdan iborat [3].

Mazkur konsepsiyada inklyuziv ta'lim asoslarini joriy etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan:

-imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish;

-ta'limda inklyuziv jarayonlarni keng rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;

-talabalar turar joylari va oliy o'quv yurtlari binolarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish;

-ta'lim muassasasini ushbu toifadagi talabalar uchun zarur bo'lgan adabiyot va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash choralarini ko'rish [4].

Bugungi kunda respublikamiz bo'ylab ko'plab oliy o'quv yurtlarida turli xil nuqsonga ega bo'lgan imkoniyati cheklangan talabalar tahsil olmoqda. Jumladan Andijon Davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat yo'nalishining o'zida o'ttiz nafardan ziyod eshitishida nuqsoni bor talabalar mavjud. Bunday talabalar imo-ishora nutqi yordamida o'zaro suhbatlashadilar. Ushbu talabalarga surdotarjimonlar biriktirilgan bo'lib, ular darslarda talabalarga mavzuni o'zlashtirishida bevosita amaliy yordam berib kelmoqdalar. Buning natijasida kar yoki zaif eshituvchi talaba sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda, ulardan kam bo'lmagan holda darsning turli shakllarida qatnasha oladi. Yuqorida aytib o'tilgan ishlar O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanayotganligidan dalolat beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Lekin, boshqa turli nuqsonga ega bo'lgan, masalan, tayanch harakat tizimida, ko'rishida nuqsoni bor talabalarning oliy ta'limda tahsil olayotganlarini kuzatsak,ular bir qancha qiyinchiliklarga duch kelayotganlarining guvohi bo'lishimiz mumkin. Universitetlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun qulay muhitning yo'qligi, birinchi navbatda, quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- Binolar arxitekturasi va binolarga tutashgan inshootlar infratuzilmasi nogironligi bor shaxslarni o'qitishga moslashmagan;

- O'zbekistondagi aksariyat oliy o'quv yurtlarining o'quv binolari to'rt qavat va undan yuqoridir, ammo mintaqaviy kesimda o'rganadigan bo'lsak, ularning ko'pchiligida liftlar yo'q, borlarda esa lift ishlamaydi yoki ta'mirlashga muxtoj, bu o'z navbatida tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan nogironlarni bino bo'ylab harakatlanishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;

-Mamlakat oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari keskin oshishi munosabati bilan ko'pchilik universitetlar o'quv xonalari fondining yetishmasligiga duch kelmoqda, buning natijasida dars jadvalini har bir juftlik kesimida tartiblash va guruh talabalarning darslarini o'tkazish uchun auditoriyani o'zgartirishga to'g'ri keladi, bu har bir juftlik darslarini turli qavatlarda joylashgan turli auditoriyalarda o'qitishga sabab bo'lmoqda. Bunday holda, baland zinapoyalar va panduslarning yo'qligi nogironlar aravachasidagi talabalar uchun binoga kirish va harakatlanish uchun jiddiy to'siqdir;

-O'zbekistonda inklyuziv ta'limning o'ta jiddiy muammosi - bu ta'lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligidir;

-Respublikamizdagi ko'plab oliy o'quv yurtlarining umumiy foydalanish joylari (oshxona, kutubxona, hojatxona) nogironlar ehtiyojlariga moslashtirilmagan, maxsus jihozlar

bilan jihozlanmagan, bu esa imkoniyati cheklangan talabalarning ushbu joylardan foydalanishini qiyinlashtiradi [5].

Shu munosabat bilan, inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash O'zbekiston Respublikasi hukumati ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilishi va belgilangan vazifalarni to'liq amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur deb hisoblaymiz.

Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirish bugungi kunda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv yondashuv barcha talabalarga — ularning jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki madaniy xususiyatlaridan qat'i nazar — teng ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Bu esa ta'lim jarayonida inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish uchun o'quv jarayonini moslashtirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, zarur infratuzilmani yaratish hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Shu bilan birga, inklyuziv madaniyatni shakllantirish, talabalar o'rtasida tolerantlik va o'zaro hurmatni kuchaytirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, oliy ta'limda inklyuziv ta'limni rivojlantirish mamlakatning inson kapitalini yuksaltirish, barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash hamda global ta'lim maydonida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3771-son qarori. – Toshkent, 2018-yil 1-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 8-oktabr.
4. Ismoilov I. Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishning zamonaviy yo'nalishlari. // Pedagogika va psixologiya jurnali, №2, 2023. – B. 60–68.
5. Azizova D. Inklyuziv ta'limning metodik asoslari va amaliy muammolari. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2021.

